

**“ZAMONAVIY PSIXOLOGIK
TADQIQOTLAR INTEGRATSIYASI”
MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIY ANJUMAN**



**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR
VAZIRLIGI**

BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI

PSIXOLOGIYA VA SOTSIOLOGIYA KAFEDRASI

**ZAMONAVIY PSIXOLOGIK TADQIQOTLAR
INTEGRATSIYASI**

**MAVZUSIDAGI RESPUBLIKA ILMIIY-AMALIIY
ANJUMAN TO'PLAMI
2023-yil 24-25 noyabr**

Buxoro – 2023

2. Тулкиновна, ИМА (2021). Эмпирическое исследование связи личности с динамическими характеристиками как ценностью здоровья. Европейский журнал исследований и размышлений в области педагогических наук, 9 (5).

3. Исакова М.Т. и Исраильжонов С. (2020). Теоретическая интерпретация некоторых соображений психического здоровья. В Психологическом здоровье Населения Как Важный Фактор Обеспечения Процветания общества (стр . 25-28).

IDENTIFIKATSIYA JARAYONI MUAMMOSINING PSIXOLOGIYADA O'RGANILISHI

Ropiyev Madamin Yusuffjonovich

Buxoro Psixologiya va xorijiy tillar instituti magistranti

Elov Ziyodullo Sattorovich,

*Buxoro davlat universiteti Psixologiya va sotsiologiya kafedrasida
dotsenti, Psixologiya fanlari doktori (DSc)*

Annotatsiya. Maqolada shaxs ijtimoiylashuvi jarayonlarining psixologik muammolari va ularning ijtimoiy psixologiyada tadqiq etish yo'nalishlariga to'xtalib o'tilgan. Shuningdek, ijtimoiy ustanovkaning obyektga va konkret vaziyatdagi aks ettishi, muloqot jarayonidagi o'rni keng yoritib berilgan. Ijtimoiy psixologiyada ijtimoiylashuv jarayonida shaxs, sotsializatsiya, etnik stereotiplar tushunchalariga munosabatlar bildirilgan.

Kalit so'zlar: attityud, shaxs, ijtimoiylashuv, stereotip, psixologik muammo, ustanovka, obyekt, vaziyat, muloqot, guruh, munosabat, differensial, huquqiy psixologiya, ontogenez, sotsializatsiya, shaxs fazilatlar.

Аннотация. Статья посвящена психологическим проблемам процессов социализации личности и направлениям их исследования в социальной психологии. Также широко объясняется отражение социального института на объекте и конкретной ситуации, его роль в процессе общения. В социальной психологии отношения к понятиям личности, социализации, этническим стереотипам выражаются в процессе социализации.

Ключевые слова: установка, личность, социализация, стереотип, психологическая проблема, институт, объект, ситуация, общение, группа, установка, дифференциал, юридическая психология, онтогенез, социализация, личностные качества.

Annotation. The article is devoted to the psychological problems of the processes of personal socialization and the directions of their research in social psychology. The reflection of a social institution on an object and a specific situation, its role in the communication process is also widely explained. In social psychology, attitudes towards the concepts of personality, socialization, and ethnic stereotypes are expressed in the process of socialization.

Key words: attitude, personality, socialization, stereotype, psychological problem, institution, object, situation, communication, group, attitude, differential, legal psychology, ontogenesis, socialization, personal qualities.

Muloqot jarayonining ham, guruhiy jarayonlarining ham egasi-subyekti hamda obyektiga aslida alohida shaxs, konkret olamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muammosini ham o'rganadiki, uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi. Ma'lumki, shaxs muammosi umumiy

psixologiyada ham yosh psixologiyasi va pedagogik psixologiyada ham, differensial, huquqiy psixologiya va psixologiyaning qator maxsus bo'limlaridan ham o'rganiladi.

Shaxs – bu ijtimoiy munosabatlarga kiruvchi ongli faol, yurituvchi, faol faoliyat bilan shug'ullanuvchi betakror odam. Shaxslararo munosabatlarda muloqot jarayonini egasi ham, obyekt ham subyekti konkret odam hisoblanadi.

Ijtimoiy psixologiya shaxsning xulq-atvorini qanday qonuniyatlariga bo'ysunishini, muloqot sistemasida olgan ta'mirini uning oldida qanday aks topishini o'rganadi. Ijtimoiy ustanovka obyektga va konkret vaziyatga bog'liq.

Etnik stereotsitlar – ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib u yoki bu vaziyatlarda aktuallashadi, jonlanadi.

Sotsializatsiya – bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirish va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borishi jarayonidir.

I-bosqich: Bola tug'ilgandan mehnat faoliyatini boshlaguncha bo'lgan davrni o'z ichiga oladi.

II-bosqich: Mehnat faoliyati davri (insonning yetuklik davri).

III-bosqich: Mehnat faoliyatidan keyingi, qarilik davri.

Ijtimoiy psixologiya shaxs xulq atvorining motivlari sifatida ijtimoiy ustanovkalarini o'rganadi. Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq-atvorining ichki anglanilmagan yoki qisman anglangan motivlarga kiradi. Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarishi mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xolland fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rganish, yo'li bilan o'zgarishi mumkin. Ya'ni, o'quvchilardagi turli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra, shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir.

Ijtimoiy psixologiya avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysunishini, shaxsning muloqotlar sistemasidan olgan ta'sirlarini talqin qilib beradi va uning ongida qanday aks etishini o'rganib, bu kabi muammolarni yechishda yordam beradi.

Muloqot jarayonining ham, guruhij jarayonlarning ham egasi-subyekti hamda aslida alohida shaxs, konkret odamdir. Shuning uchun ham ijtimoiy psixologiya alohida shaxs muommasini ham o'rganadi va uni o'sha turli ijtimoiy jarayonlarning ishtirokchisi va faol amalga oshiruvchisi degan nuqtai nazardan tekshiradi.

Shaxs muommasiga ijtimoiy-psixologik yondashishning o'ziga xosligi shundaki, u turli guruhlar bilan bo'ladigan turli shakldagi o'zaro munosabatlarning oqibati sifatida qaraladi. Ijtimoiy psixologiya avvalo, biror guruhning a'zosi hisoblangan shaxs xulq-atvori qanday qonuniyatlarga bo'ysinishini, uning muloqotga ta'siri ongida qanday aks topishini o'rganadi. Shaxs xulq-atvorini boshqarish mexanizmlarini ishlab chiqish ijtimoiy psixologiyaning asosiy vazifasidan biridir.

Shaxsga ijtimoiy-psixologik yondashish, uni ma'lum guruhlarning a'zosi, konkret sharoitda o'ziga o'xshash shaxslar bilan muloqotga kirishuvchi konkret odam deb tushunishdir.

Shaxs sotsializatsiyasi - «shaxs taraqqiyoti» yoki tarbiyasi tushunchalari bilan sinonim.

Sotsializatsiya – bu individning ijtimoiy muhitga qo'shilishi, ijtimoiy ta'sirlarni o'ziga singdirishni va aktiv ravishda muloqot sistemasiga kirib borish jarayonidir. Bu jarayon ikki tomonlama bo'lib: bir tomondan shaxs aktiv ravishda qabul kiladi, ikkinchi tomondan esa, ularni hayotda o'z xulq-atvorlari, munosabatlarida namoyon etadi. Bu jarayon normal individda tabiiy tarzda ro'y beradi, chunki individ shaxs bo'lishga ehtiyoj hamda shaxs bo'lishida imkoniyat va zaruriyat bordir. Shuning uchun ham bola tug'ilib, ijtimoiy muhitga qo'shilgan ondan boshlab, undagi shaxs bo'lishga intilishni, undagi shakllanish jarayonini kuzatish mumkin. Shaxsning shakllanishi asosan uch sohada amalga oshiriladi.

Faoliyat sohasi, ya'ni umri mobaynida shaxs turli faoliyatlarga bevosita yoki bilvosita jalb etilgan bo'lib, bu jarayonda faoliyat kengayib, boyib boraveradi.

1. Muloqot sohasi, ayniqsa maktabgacha yosh davridagi va o'smirlik davrlaridagi muloqot sistemalari bolada bir qancha ijtimoiy psixologik xislatlarni paydo qiladiki, buning natijasida u faol hayotiy mavqega ega bo'ladi, jamiyatda o'z o'rnini tasavvur qilishga erishadi.

2. O'z-o'zini anglash sohasi, ya'ni «men»ligini boshqalardan ajrata olish, o'ziga mustaqil harakat qilish. Mustakil fikr yurita olish qobiliyatini anglash, so'ngra esa, o'z-o'zini baholash, anglash, nazorat qilish xususiyatlari rivojlanadiki, ular ham faol shaxs psixologiyasining tarkibiy qismi hisoblanadi.

Umumiy psixologiyada va psixologiyaning boshqa tarmoqlarida o'tkazilgan ilmiy izlanishlar natijasida asosan qanday shaxsni «ijobiy» deb atash mumkin degan savolga qisman javob topilgan. Masalan A.V.Petrovskiy ana shunday sifatning bir yarim mingga yaqinini aniqlagan, lekin, o'sha sifatning shakllanishiga zamin bo'ladigan guruhlar haqida shu paytgacha fanda aniq ma'lumotlar yo'q.

Ijtimoiy psixologiyada ana shu masala kichik guruhlar doirasida qisman hal qilingan xolos. A.V.Petrovskiy shaxsning guruhga kirib ketish omilini o'rgangan. Ya.L.Kolominskiy esa har bir guruhning «o'z qiyofasi» bo'lib, u shaxs taraqqiyotiga ta'sir ko'rsatadi degan g'oyani ilgari suradi. V.S.Merlin ham har bir jamoadagi shaxslararo munosabatlar shu guruh a'zolarida ayrim, shu guruhgagina xos bo'lgan fazilatlarini tarbiyalaydi deb yozgan edi. Shuning uchun ham hozirgi kunda shaxsni tushunish uchun uning real guruhlarini o'rganish, u yerdagi ustun muloqot tiplarini aniqlash va analiz qilish, guruh a'zolari uchun kimlar haqiqiy obro'ga ega ekanligini bilish muhimdir, degan nuqtai-nazar asosida qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmoqda. Shaxsni baholashning asosiy mezonlaridan biri uning jamoa ishiga qo'shilgan ulushidir, lekin bu ulushni uning o'z mehnat jamoasidagi o'rni, amali yoki umuman qilgan ishlari bilan baholab bo'lmaydi. Chunki, uning haqiqiy ulushi qandayligini o'sha jamoadagi ishining samaradorligiga qo'shgan hissasidangina keltirib chiqarish lozim. Shu narsa diqqatga sazovorki guruh a'zolari har bir shaxsni o'sha ulushiga qarab baholaydilar va unga ma'lum munosabatda bo'ladilar. Ana o'sha baholash me'yori har bir jamoada o'zgacha bo'lib, o'sha guruhda shakllangan normalar tizimini hosil qiladi. Jamoa yoki guruh tomonidan berilgan baholar shaxs uchun ahamiyatli bo'lib, u «men» obrazi orqali o'zida kerakli fazilatlarini rivojlantirishdan manfaatdordir.

Demak, shaxsning o'zi haqidagi bahosi guruhning u haqidagi va boshqa shaxslar haqidagi baholarga bevosita bog'liq bo'lib, u guruh bilan janjallashib qolmaslik, ziddiyatli vaziyatlarga tushib qolmaslik uchun jamoatchilik bahosini qadrlaydi. Guruh fikrini qadrlash turli tipli guruhlarda turlicha bo'ladi. Masalan, endigina shakllangan guruh yoki jamoaga a'zo bo'lib kelgan odam uchun uning bahosi unchalik ahamiyatli emas, lekin bu guruh jamoa darajasigacha yuklangan shaxslararo munosabatlarning ma'lum tizimi shakllangan guruh uyushqoq bo'lsa, bunday guruhning bahosi bilan har bir shaxs hisoblashadi va uni qadrlaydi. Har bir guruhda a'zolari birlashtirib turgan umumiy faoliyat maqsadlarini har bir shaxs ongiga to'g'ri yetkazish va o'zaro munosabatlar tizimini yaxshilab, har bir shaxsning bir-birlarini yaxshi bilishlari va bir-birlarini to'g'ri baholashlariga alohida e'tiborni qaratish lozim. Bu narsa shaxsda shakllanajak ijobiy sifatning asosidir. Shaxs sotsiolizatsiyasi bola tug'ilganidan boshlansa, 1-bosqich: mehnat faoliyatigacha bo'lgan bosqich bo'lib, unga bolaning maktabgacha yosh davri va o'qish yillari kiradi. Bu davrdagi sotsiolizatsiyaning ahamiyati va o'ziga xosligi shundaki, bu davrda asosan tashqi ijtimoiy muhit ijtimoiy ta'sirlar faol ravishda onga singdiriladi, mustaqil hayotga tayyorgarlik borasida muhim bosqich o'tiladi. 2-bosqich: mehnat faoliyati davri bu davr odamning yetuklik yillari bilan bog'liq bo'lib, avvalgi davrlarda singdirilgan ijtimoiy ta'sirlarni bevosita faol faoliyatda shaxslararo munosabatlar sistemasida namoyon etadi. Kasbga ega bo'lib aniq hayot yo'lini tanlagan, turmush qurib, kelgusi avlodni tarbiyalayotgan shaxsda namoyon bo'ladigan barcha ijtimoiy fazilatlar shu davrning mahsulidir. 3-bosqich: mehnat faoliyatidan keyingi davr bo'lib, bunga asosan faol mehnat faoliyatidan, so'ng qarilik gashtini surayotganlar kiradi. Ortirilgan tajriba

boshqalarga uzatiladi. Shaxs tuzilishida ham xususiy o'zgarishlar yuz beradi. Sotsiolizatsiya jarayoni ro'y beradigan sharoiti muassasalar – oila bolalar muassasalari, maktab, o'quv dargohlari, mehnat jamoalari. Ijtimoiy muhitning ta'siri xulq atvorda bevosita namoyon bo'ladi. U yoki bu xulq atvorning sababi uning motividir.

Ijtimoiy ustanovka shaxs xulq atvorining ichki anglanmagan yoki qisman anglangan motivlarga kiradi. Masalan, bir kishiga badiiy adabiyotdan aynan bir guruh asarlar yoqadi. Ijtimoiy ustanovka shaxsdagi anglanmagan munosabatlarga o'xshaydi. Ijtimoiy ustanovka tushunchasida munosabatlar ham shaxsiy ma'no, baholar sistemasi ham, bilimlar ham o'z ifodasini topadi.

Ijtimoiy ustanovka obyektga hamda konkret vaziyatga bog'liqdir. Etnik stereotiplar ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlari uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatlarda aktuallashadi, jonlanadi. Ijtimoiy ustanovka muammosi g'arbda ayniqsa, AQShda har taraflama chuqur o'rganilgan muammolardan hisoblanadi. Amerikalik olimlar uning shaxsning avvalgi hayotiy tajribasiga undagi ijtimoiy tasavvurlarga bog'liqligini o'rganib shaxs xulq atvorini turli sharoitlarda boshqaruvchi mexanizm ekanligini isbot qildilar (U.Tommas, F.Znanetskiy, G.Olpart, Lapper va boshqalar) ijtimoiy ustanovkani bir so'z bilan «attityud» so'zi bilan ifodalaydilar. 1942 yilda M.Smitt tomonidan attityudning 3 komponentlik strukturasi ishlab chiqilgan.

Ijtimoiy ustanovkalariga xos bo'lgan umumiy qonuniyatlardan yana biri, uzoq muddatli xotira bilan bog'liqligidir. Ayni vaziyatlarda shakllangan obrazlar uzoq muddatli xotirada saqlanib, u yoki bu vaziyatda aktuallashadi. Shakllangan ijtimoiy ustanovkaning hayot mobaynida o'zgarish mumkinligi muhim ijtimoiy psixologik ahamiyatga egadir. Amerikalik olim Xovland fikricha, ijtimoiy ustanovka o'rgatish yo'li bilan o'zgarish mumkin ya'ni, o'quvchilardagi turli ustanovkalarini o'zgartirish uchun rag'batlantirish lozim. Ikki shaxs yoki shaxs bilan guruhning ustanovkalari mos kelmay qolgan sharoitda esa tomonlardan biri ongli ravishda o'z ustanovkalarini o'zgartirishi shartdir. Aks holda nomutanosiblik prinsipiga ko'ra, shaxslararo nizo yoki kelishmovchilik paydo bo'lishi muqarrardir. Shaxs sotsiolizatsiya jarayonida turli ustanovkalarini ro'yobga chiqarish sharoitida faollik ko'rsatadi. Har bir shaxsda o'ziga xos tarzda dunyoni, odamlarni idrok qilish va tushunish qobiliyati borki, ular muloqot jarayonida kamroq xatolarga yo'l qo'yishini ta'minlaydi. Masalan, bosqlik. Mulohazalilik o'zgalarning ichki dunyosini gaplari, xatti-xarakterlariga qarab, bilish qobiliyati va boshqalar shular jumlasidandir. Shu fazilatlarini qanchalik namoyon eta olishga qarab, shaxs tiplari farqlanadi.

Adabiyotlar.

1. U.P.Lafasov, A.Q.Ismoilov, A.P.Madvaliyev, O'zbek tili, Darslik, Toshkent, 2008.
2. К.Ф.Абдуллаев, Унсурул маолий Кайковуснинг «Қобуснома» асари ва унинг тарбиявий аҳамияти.
3. Elov Z.S. Psychological influence of speech disorders and the causes that cause them on the child's psyche. *Academicia globe: inderscience research volume: 3, issue 1, january-2022* 39-42.
4. Elov Z.S. Researches of the Reasons Conditions, Fastors of Suicide Rick Intellectual Archive Volume 5 Number 1. 2016. 49-53.
5. Elov.Z.S. Қадимги халқлар урф-одатлари ва ривожланган жамиятда ўз жонига қасд қилишнинг ижтимоий психологик сабаблари. Тарих ва бугун (қадимги халқлар урф-одатлари ва бугунги замон) *Jamiyat va innovasiyalar.* 10.2021 169-173.
6. F.F.Usmonov, Z.S.Elov. Suicide – as a global problem facing humanity. *Web of scientist: international scientific research journal.* Volume 3, Issue 2, Feb., 2022. 349-354.
7. Olimov L.Ya. Umumiy psixodiagnostika. “Durdona” nashriyoti. Buxoro. 2020. -B. 1103.

- 75 **Safarov Dilmurod Xalimovich**
Rahbarlik faoliyatining ijtimoiy ahamiyati va ijtimoiy-psixologik xususiyati
- 78 **Vahobova O'g'iloy Tolibjonovna**
Axborot muhitining yoshlar ijtimoiy normalari shakllanishiga ta'sirining psixologik jihatlari
- 81 **Xudoyberganova Maqsuda Jumaniyazovna**
Oliy ta'limda kafedra tizimidagi hamkorlikni o'rganishning ijtimoiy psixologik tavsiflari
- 84 **Kuliev Erkin Karimovich**
Характерные черты коррупции в сфере образования.
- 89 **Ostanaqulov Alijon**
Состояние изучения проблемы деструктивного поведения в подростковом возрасте.
- 93 **Ropiev Madamin Yusufjonovich, Elov Ziyodullo Sattorovich**
Identifikatsiya jarayoni muammosining psixologiyada o'rganilishi
- 97 **Safarova Anusha Suronovna**
Проблема интеграции психологического знания
- 99 **Usmanova Mазнura Naimovna**
Развитие психологии в узбекистане
- 101 **Beknazarov Ahmadjon Asamididinovich, Lotipova Madina Davlatovna**
Nutqning ichki mexanizmining psixologik tavsifi
- 106 **Yuldashova Dilafruz Shavkatovna**
Talabalarning ta'lim motivatsiyasining tasniflari
- 111 **II-SHO'BA**
PSIXOLOGIK XIZMATNI KO'RSATISH MUAMMOLARI
- 112 **Barotov Sharif Ramazonovich**
Научно-практические основы создания психологической службы в узбекистане
- 122 **Axmedova Zarrina Jamilovna**
Boshlang'ich sinf o'quvchilar moslashuvining pedagogik-psixologik xususiyatlari
- 125 **Bobirov Davron Bobir o'g'li**
Huquqni muhofaza qiluvchi organlarga psixologik xizmat ko'rsatishning bugungi kundagi muammolari
- 127 **Boboyeva Feruza Nosirjonovna**
O'smirlarda iroda shakllanishining psixologik xususiyatlari
- 131 **Goyibnazarova Soxiba Shakarovna**
Oila munosabatlarida gender rollari va streotiplari muammosi.
- 133 **Hakimova Fazolat Xoshimovna**
Oilaning ta'lim-tarbiyaviy salohiyatini yaxshilashda ijtimoiy-psixologik xizmatlar
- 136 **Islomov Nurtoy Nomoz o'g'li**
Talabalarga ilmiy-didaktik atamalarni taqdim etish
- 137 **Kamilova Madina**
Huquqiy savodxonlik va shaxs ijtimoiy sifatlarining aloqadorlik omillari
- 140 **Ortiqov Akmal Qobulovich**
Harbiy jamoalarda psixologik xizmat ko'rstishda psixologik treninglarni ahamiyati
- 142 **Rajabov Paxlavon Faxriddin o'g'li**
Yoshlarda milliy tarbiya shakllanishining ijtimoiy-psixologik omillari
- 145 **Shomurodov Ibrohim Xusanmurot o'g'li**
Ekstremal vaziyatlarda shaxsni o'rganishning ijtimoiy-psixologik ahamiyati
- 151 **To'yurodov Abdurahmon Shuhrat og'li**
Harbiy jamoalarga psixologik xizmat ko'rsatishning ijtimoiy-psixologik mexanizmlari
- 153 **Turobova M.A.**
Talabalarni oilaviy xayotga tayyorlashning psixologik jixatlari
- 155 **Akramova Feruza Akmalovna**
Oilaviy psixolog xizmat joriy etilishining metodologik muammolari
- 157 **Salixov Shohrux Mansurovich**